

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi birinchi Airbus A321LR havo kemasini kutib oldi

2022 14 Fevral

Bugun, 14-fevral kuni “Toshkent” aeroportining mahalliy aviayo‘nalishlar terminalida birinchi A321LR havo kemasini tantanali kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi. Gamburg shahridan uchib kelgan ilk A321LR havo kemasini an‘anaga ko‘ra suv arkasi bilan kutib olindi. Tadbirda “Uzbekistan Airways” AJ rahbariyati va xodimlari, ommaviy axborot vositalari, blogger, spotterlar, shuningdek, faxriy mehmonlar ishtirok etishdi.

UK32101 ro‘yxatga olish raqamini olgan samolyot Airbus zavodlaridan biri joylashgan Gamburg shahridan (Germaniya) 5 soatu 30 daqiqa davom etgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri parvoz amalga oshirdi. Havo kemasi Uzbekistan Airways ekipaji Dilyaver Karabash va Shoxrux Rahimov boshqaruvida olib kelindi.

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Markaziy Osiyoda Airbus‘ning uzoq masofaga mo‘ljallangan mahsulotining birinchi operatori bo‘ladi. Birinchi samolyot 188 yo‘lovchiga (biznes-klassdagi 16 o‘rin, ekonom klassida 172 o‘rin) mo‘ljallangan va CFM International LEAP-1A dvigatellari bilan jihozlangan. Aviakompaniya o‘zining birinchi A321LR havo kemasini mahalliy va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha foydalanishni rejalashtirmoqda.

Uzbekistan Airways Airbus bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni 1993-yilda boshla bo‘lib, “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasi va hozirda “Uzbekistan Airways” AJ A310 havo kemasidan boshlab G‘arbda ishlab chiqarilgan zamonaviy samolyotlar parki bilan yangi davrga kirib kelgan mintaqadagi birinchi aviakompaniya bo‘ldi. Uzbekistan Airways aviakompaniyasi har doim aviatsiya korxonalarini bilan yaqin aloqada bo‘lib kelgan bo‘lsa, keyingi yillarda A310 va boshqa turdagi havo kemalariga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha o‘z imkoniyatlariga ega bo‘ldi. Ushbu muvaffaqiyatning ikkinchi muhim omili 2010-yilda xizmatga kirishgan A320CEO tanlovi bo‘lsa, 2019-yilda esa aviakompaniya aviaparkiga qo‘shilgan A320NEO bo‘ldi.

“Aviakompaniyaning yaqin kelajakdagi rejalari – yaqin va uzoq xorij mamlakatlariga parvozlarni geografiasini kengaytirish, shuningdek, yangi va qulay samolyotlarni sotib olish orqali aviaparkini kengaytirish bo‘yicha faol ish olib bormoqda. Buning yaqqol misoli bu yil oxirigacha qabul qilib olinadigan beshta Airbus samolyotlariga buyurtma berilishidir” –, deydi “Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyati Boshqaruv raisi Ilhom Mahkamov.

Tadbir davomida ishtirokchilar, OAV vakillari yangi zamonaviy Airbus A321neo avialayneri va uning texnik xususiyatlari bilan yaqindan tanishishdi.